

МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2023

6-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

6-сан 2023

декабрь

Шолкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Максет АЙЫМБЕТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Сафо МАТЧОН
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Фуркат РАЖАБОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Феруза САПАЕВА
Фарҳад БАБАШЕВ	Қаххор ТУРСУНОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Амина ТЕМИРБЕКОВА
Шахло БОТИРОВА	Нурзода ТОШЕВА
Маманазар ДЖУМАЕВ	Тажибай УТЕБАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Алишер ЖУМАНОВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Холбой ИБРАГИМОВ	Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Асқарбай НИЯЗОВ	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Сабит НУРЖАНОВ	Гавхар ЭШЧАНОВА
Уролбой МИРСАНОВ	



Хуррамов Э.Э. Олий таълим тизимида бўлажак ўқитувчиларнинг лойиҳавий фаолиятини ташкил этиш технологиялари	172
Турдиев Н.Б. Интегратив дарсларни ташкил этишининг педагогик шарт-шароитлари	177
Исакова Н.Ш. Умумтаълим мактаблари раҳбарларининг индивидуал ёндашув асосида бошкарув компетентлигини ривожлантиришнинг дидактик таъминоти	183
Хакимова М. Техника олий таълим муассасаларида муҳандислик графикаси фанини инновацион ёндашув асосида ўқитишида инновацион технологиялардан фойдаланиш	190
Yuldasheva M. Masofaviy ta'liming mazmuni va uning oliv ta'lim tizimida qo'llanilishi	197
Пардабаев Ж. Мактабдан ташқари таълимда ўқувчиларни тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиришга илмий педагогик ёндашувлар	202
Umarova N. Umumta'lum muassasalarini rahbarlarining kommunikativ kompetentligini takomillashtirish dolzarb masala sifatida	211
Madatov I. Talabalarda mustaqil ta'lum olish ko'nikmasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodikalar tahlili	220
Pozilova Sh. Pedagog kadrlarni malakasini oshirish kursida o'qituvchilarning kasbiy kreativligini PBL asosida rivojlantirish: amaliy mashg'ulotlarni olib borish metodikasi misolida	232
Ibodova M. Akademik litseylarda biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishda muammoli ta'lum texnologiyasidan foydalanish	239
Nuriddinova D.F Texnologiya darslarini milliy dastur asosida tashkil etish	244
Дониёрор III. Педагогнинг ўқувчилар жамоаси билан ишлаш лаёқатини ривожлантиришда бир катор омиллар ва мустақил изланишга ўргатиш усуллари	250
Muratova N. Noto'liq oilalar farzandlarini ijtimoiy hayotga tayyorlash xususiyatlari	258
Idiyeva G. Ta'lum jarayonlariga "tarbiya" darsliklarining joriy etilishi va ularning tahlili	265
Djo'rboeva R. Umumiyy ta'lum tizimida rahbar xodimlarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish bo'yicha muhim tamoyillar	271
Игамов С. Ўқувчиларни қасб-хунарга ўйналтиришни takomillashtiришда, халк хунармандчилигидан фойдаланишининг педагогик шароитлари	277
Egamberdiyeva Sh. Psixologik tashxis qilishda aqli zaif o'quvchilarni o'ziga xizmat qilishga o'rgatish	284
Normatova M. Ovoz bilan ishslashda logoritmika asosida korreksiyalash tizimi	288
Lutfillayev M.X., Djabbarov B.B. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini oshirishda dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish	294
Abdulxafizov B. 10-11-sinflarda bilimlarni baholashda pedagogik kvalimetriya tamoyillari va usullari	298
Mavlonov F. Harbiy xizmatchilarining kasbiy madaniyatining muhim va mazmunli o'ziga xos xususiyatlari	304
Nurumbekova Y. Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarda kouching kompetensiyasini shakllantirishning ahamiyati	310
Sadullayev D. Innovatsion boshqaruvning asosiy komponentlari	318
Tursunov D. Umummadaniy kompetensiyalarini tarixiy qadriyatlар asosida shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	324
Mehrochev B.B. Masofaviy ta'lum jarayonida sirtqi ta'lum talabalarining mustaqil ishini tashkil etish	332
Мамадијрова Д., Азгарова Г. Тиббиёт олийгоҳлари талabalariда қасбий кўнимкамлар шаклланишининг ижтимоий-психологик хусусиятлари	337
Xidayeva D. Rus tilini o'qitishda ta'lum metodlarining o'ziga xos xususiyatlari	341
Jumanov E. Pedagog kadrlarni uzlusiz kasbiy rivojlantirishda psixologik va pedagogik yordamning dolzarb muammolari	346
Asallayev O'. Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari	356
Elmurodov J.A. Multimediali elektron o'quv adabiyotlarga qo'yiladigan pedagogik - psixologik talablar	362



RUS TILINI O'QITISHDA TA'LIM METODLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xidayeva D.E.

Toshkent tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: ta'lism, tarbiya, metodlar, texnologiya, sun'iy aql, raqamlashtirish.

Ключевые слова: образование, обучение, методы, технологии, искусственный интеллект, цифровизация.

Key words: education, training, methods, technology, artificial intelligence, digitization.

Ta'lim metodi o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarini egallay hamda ulardan amalda ham foydalanish imkonini beruvchi ish usulidir. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil etishning tartibga solingan usullar majmuasi hisoblanadi.

Metod so'zi yunoncha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, yo'l, usul ma'nolarini anglatadi.

Suhbat metodi bu - o'quvchi shaxsini g'oyaviy, ma'naviy, axloqiy jihatdan shakllantirishda o'qituvchining jonli so'zi eng ta'sirchan usullardan biri hisoblanadi. Suhbat uchun mavzu tanlashda uning mazkur sinf o'quvchilarini uchun har tomonlama mosligi, dolzarbliги muhim ahamiyatga ega. Suhbat quyidagi mavzularda uyushtirilishi mumkin.

1. Etik mavzular (ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, jamoa orasida o'zini tutish konun- qoidalari)

2. Estetik mavzular (tabiat go'zalligi, inson go'zalligi, shaxslararo munosabatlar)

3. Siyosiy mavzular (davlatning ichki va tashqi siyosati, dunyo voqealari, xalqaro munosabatlar).

4. Ta'lim va biliшgа oid mavzular (koinot va hayvonot dunyosi va boshqalar) kabi mavzularda suhbat tashkil etish ijodiy natija beradi.



Suhbat davomida o‘quvchilarga ularning o‘z fikrini erkin ifoda etishlari hamda mustaqil fikr yuritishlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat etish juda muhimdir. Bu borada bahs-munozaraning ham katta abhamiyati bor.

HIKOYA metodi bunda o‘quvchilar odatda turli xil misollar bilan boyitilgan hikoyalarga qiziqishadi va ularni sevib tinlashadi. Ularga xalq o‘tmishi, ertak qahramonlarining hayoti, ularning ko‘rsatgan jasoratlari haqida so‘zlab berish mumkin. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, gazetalar, jurnallar, radio-televideniyedagi malumotlar ham o‘quvchilarni aslo befarq qoldirmaydi. Suhbat yokki hikoya mavzusining o‘quvchilar tomonidan tanlanishi, ularning mazmunli va qiziqrarli o‘tishini ta’minlaydi. Buning natijasida o‘quvchilar ilgari surilayotgan bu mavzuga e’tiborsiz bo‘lishmaydi. O‘z fikrlarini erkin ravishda bildira oladi. Bu esa fikrlarini rivojlanishiga olib keladi.

Bu borada birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham «Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samara uchuni past bo‘lishi muqarrar» degan fikrni bildirgan edilar. Shuning uchun bolalarni erkin fikrlashga undashimiz, ularning dunyoqarashini boyitib borishimiz kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash metodi bu o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minalash, ijtimoiy mavqeini oshirishning ta’sirchan vositasidir.

O‘z-o‘zini baholash metodi bunda xatti-harakatlari, fazilatlari, xulq- atvorini tahlil qilish, asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat turi hisoblanadi. O‘quvchi o‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin ularni bunga yetarlicha tayyorlash mumkin. Buning uchun o‘quvchi o‘z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo‘lishi, ya’ni tarbiyalanishni xohlashi, o‘z - o‘zini takomillashtirishga intilishi lozim. Bu usul ularga o‘zlariga chetdan turib, xolisona baho berishga yordam beradi.

Rag‘batlantirish metodi bu - o‘quvchilarning faoliyatiga, xatti harakatiga ijobjiy baho berish, asosida unga ishonch bildirish, ko‘nglini ko‘tarish va ularni qo‘llab-quvvatlash usuli hisoblanadi.

O‘qituvchi doimiy ravishda o‘quvchilaridagi o‘zgarishlarni kuzatib borishi, ularga nisbatan e’tiborli bo‘lishi kerak bo‘ladi. Shundagina, o‘quvchilar o‘zlarini e’tiborsiz qolodik deb bilmaydilar. Doimo e’tibordaman deb o‘ylab, rivojlanishga, oldinga intilishga harakat qilib boradilar. O‘qituvchi hamma o‘quvchilariga nisbatan jamoadaadolatli bo‘lishi kerak. Shunda o‘quvchilar ustozini hurmat qilishadi, bilimlarni to‘g‘ri baholashlariga ishonishadi. Ustozlar shu tariqa, o‘z jamoasida o‘z o‘rinlarini topishadi.

Quyida rivojlanayotgan yangi pedagogikalar haqida so‘z yuritamiz.



1) Ta’limda sun’iy aql. «Sun’iy aql» atamasi (SA) kompyuter tizimlarini tavsiflash uchun ishlataladi. Sun’iy aql ta’lim tizimlari maktablarga, kollejlarga va universitetlarga shiddat bilan kirib bormoqda. Ko‘pchilik odamlar sun’iy aqlni robot o‘qituvchilar deb tasavvur qilsalar-da, uning ham foydali tomonlari bor. Talabalar uchun yaratilgan ilovalar aqli o‘qitish tizimi, dialogga asoslangan o‘qitish tizimi, tadqiqotga asoslangan o‘quv muhiti, avtomatik yozishni baholash va suhbat agentlarni o‘z ichiga oladi. O‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan dasturlar kam rivojlangan bo‘lsa ham, o‘qituvchilarini o‘z bilimlarini oshirishlarida yordamchi dastur hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, talabalar va o‘qituvchilarning tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot va hamkorlik kabi qobiliyatlarini inobatga olish kerak. O‘qituvchilar, o‘rganuvchi olimlar va boshqa manfaatdorlar ikkala tomonni ya’ni sun’iy aql ilovalarni ham, o‘qitish va o‘rganish usullari ham rivojlantirishga shug‘ullanishsa nur ustiga a’lo nur bo‘lar edi.

2) Ochiq ma’lumotlar orqali o‘rganish. 250 dan ko‘proq milliy, mahalliy va shahar hokimiyatlari va global miqyosdagagi tashkilotlar ma’lumotlarni bir-birlari bilan almashishyapti, yaratishyapti va o‘z ishlarida foydalanishyapti. Ushbu tashkilotlar xalq tomonidan ishlataladigan ma’lumotlarni ko‘rishga intilishadi, ko‘pgina yetuk xizmatlar ochiq ma’lumotlarni o‘rganish uchun manbalarni taqdim etishadi. Keyinchalik tashabbuslar ularni innovatsion ta’limga olib keldi. Xo‘s, savol tug‘iladi - ochiq ma’lumotlar material sifatida nimani taklif qiladi? Uning o‘rganish va o‘qitishdagi ahamiyati qanday? Asosiy omil bu haqiqiylik. Birgalikda ishlataladigan ma’lumotlar yirik tashkilotlar ichida sodir bo‘layotgan real jarayonlar natijasida paydo bo‘ladi. Ko‘pincha kasbiy ishda foydalaniladigan ma’lumotlar bizning hayotimizga va atrofimizdagи dunyoga real ta’sir qiladi. Ikkinchi omil - bu ma’lumotlar talabalarning salohiyatini oshirishdagi ahamiyatidir. Bu juda kuchli ruhiy ta’sir bo‘la oladi. Talabalar o‘z shaharlarida, qishloqlarida balki o‘z sinflarida bo‘layotgan voqeа-hodisalarini yaqin va uzoqda sodir bo‘layotgan voqeа-hodisa bilan taqqoslay oladilar. Balki bu jarayonda ular muammolarni ham aniqlab, bu muammoga mahalliy yoki butun jamiyat e’tiborini jalb qilishlari ham mumkin. Bitta misolda, o‘rtा maktab o‘quvchilari Italiyada davlat tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida qurilish loyihalari uchun mukofotlangan. Bundan ko‘rinib turibdiki, ochiq ma’lumotlar o‘quvchilarni bir-biri bilan bog‘lagan, ma’lumotlar savodxonligi, oshkorlik va dalillarga asoslangan harakatlar natijasida kattaroq rag‘bat uchun ijtimoiy harakatlar vujudga kelgan.

3) Ma’lumotdan foydalanish axloqi bilan shug‘ullanish. O‘sib borayotgan ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish axloqiy savollarning doimiy



ravishda ko‘payishi bilan birga keladi. Bu yerda axloqiy muammolar ko‘p ma’lumotlarga, masalan, kim egalik qiladi, ma’lumotlarni qanday izohlash kerak, talabalar va professor-o‘qituvchilarining shaxsiy hayoti qanday himoya qilinishi kerak? O‘zлari xabardor bo‘lmagan odamlarni tanqid qilish holatlari ham kuzatilgan. Ehtimol, bu faqat vaqt masalasidir. Bunday muammolarni oldini olish uchun ta’lim muassasalarida ma’lumotlar axloqiga tegishli siyosatni ishlab chiqish, ma’lumotlardan foydalanish uchun talabalardan rozilik olish, ularning o‘zaro aloqalaridagi har qanday ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning ta’limni boshqarish tizimi haqidagi fikrlari bilan tanishib, samarali o‘qitish tizimini yaratish, shuningdek, talabalar va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash masalalari ham inobatga olinishi kerak. Hozirda rasmiy mashg‘ulotlar mavjud emas. Buning uchun o‘qituvchilar talabalarga imkoniyat yaratib berishi lozim. Hozirgi raqamli dunyoda institut va universitetlarning o‘zaro ma’lumot almashishi ularning samaradorligini yanada oshiradi [«Innovating Pedagogy 2020» jurnali].

Talabalaringiz rus tilini qanday qilib yaxshilay olishlarini so‘rashganda, ularga qanday maslahat berasiz? O‘qituvchilar ko‘pincha quyidagilarni maslahat berishadi: ko‘plab rus tillarini tinglash, so‘zlarni tez-tez qayta ko‘rib chiqish, tilni o‘rganish va grammatikaning ma’noga qanday ta’sir qilishini tushunish.

O‘qituvchi juda ko‘p yordam berishi mumkin, ammo talabalar haqiqatan ham ilgarilab ketishlari uchun sinfd a‘tkazadigan vaqt yetarli emas; ularga darsdan tashqari vaqtarda ham ko‘plab mashqlar kerak.

O‘qituvchi uchun talabalar darsdan tashqari vaqtarda nima qilayotganini ko‘rib chiqish va rus tilini takomillashtirish bo‘yicha ko‘rsatma berish juda muhimdir. Bu uy vazifasini belgilashdan tashqarida va talabalar har kuni rus tilida ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan vositalar va manbalarni o‘z ichiga olishi kerak.

Dunyo bo‘ylab ko‘plab vaziyatlarda o‘rtta va undan yuqori darajadagi talabalar yordam beradigan dastur do‘konlari orqali turli xil dasturlarni taklif qiladigan smartfonlardan foydalanish imkoniyatiga ega. Darhaqiqat, ular juda ko‘p; Apple App Store yoki Google Play-da «Rus tilini o‘rganining» ni qidirib toping va shuncha variantlarga duch kelasizki, qayerdan boshlashni bilish qiyin. Yaxshi joylardan biri, albatta, Britaniya Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan, o‘qituvchilar va mobil ta’lim bo‘yicha mutaxassislar tomonidan yozilgan dunyoga mashhur dasturlardir.

Xulosa qilib aytganda, bu qoidalar, metodlar ustoz va shogird o‘rtasida kerak bo‘ladigan muhim omillardandir. Bu usullar o‘quvchilarining fikrlarini



teranlashtiradi, cho‘chimasdan bemałol o‘z shaxsiy fikrlarini bayon qilishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. M. X. Toxtaxodjayev «Pedagogika» Toshkent - 2010. 220, 221 - betlar.
2. I. Karimov «Barkamol avlod orzusi» Toshkent-2000. 133, 134 - betlar
3. O. Z. Suyunov «Pedagogika Psixologiya» fanidan o‘quv-uslubiy majmua. Samarqand-2013.
4. Sh. Qosimov Pedagogikada ta’lim modellari Chop etilgan Respublika ilmiy- amaliy konferensiya йМКХТТКМО va UKTI «Barkaror rivojlanish talablaridan kelib chikkan xolda kadrlar malakasini oshrish va ularni kayta tayyorlash tizimini modernizatsiyalash» 2016 yil 13 aprel. -B179-182.
5. Sh. Kosimov, Pulatov G. E. Teacher Innovative Activity In Teaching Special Subjects International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology novateurpublica tion’s volume 7, issue 5, may 2020 edition ISSN: 2394-3696. www.ijiert. -P. 282-284.

РЕЗЮМЕ

Til o‘rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o‘qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o‘z faniga nisbatan muhabbatini uyg‘ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o‘rnatish hozirgi davr talabini taqozo etidi. Qaror chet tillarini o‘rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlariga muvofiq umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliv ta’lim muassasalarini uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o‘qituvchilarini tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta’minlash maqsadida qabul qilindi. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o‘rganilayotgan tilning o‘ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo‘lish uchun o‘rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

РЕЗЮМЕ

Выявление возможностей в обучении языку и воплощение их в жизнь, знания учителя, креативность, способность вызывать любовь учащихся к своему предмету, установление отношений сотрудничества с учеником являются требованиями современной эпохи. Решение о дальнейшем развитии преподавания иностранного языка, реализации мер по повышению уровня и качества подготовки квалифицированных преподавателей, обладающих высоким уровнем владения иностранным языком, для общеобразовательных школ, профессиональных колледжей и академических лицесов, высших учебных заведений в соответствии с международными стандартами было принято в целях обеспечения. При этом следует сказать, что каждый изучаемый язык имеет свои правила и секреты. Чтобы стать зрелым специалистом, соответствующим международным стандартам, обучающемуся необходимо не упускать из виду тончайшие слои языка.

SUMMARY

The teacher’s knowledge, creativity, ability to arouse students’ love for their subject, to establish a cooperative relationship with the student in the process of identifying and revealing opportunities in language teaching requires modern requirements. The decision is aimed at further development of foreign language teaching, implementation of measures to improve the level and quality of training of highly qualified teachers of foreign languages for secondary schools, vocational colleges and academic lyceums, higher education institutions in accordance with international standards. was adopted to ensure. At the same time, it should be noted that each language studied has its own rules and secrets. In order to become a professional who meets international standards, the learner is required not to overlook the most delicate layers of language.